

FARG'ONA SHAHRIDA JAMOAT TRANSPORTI TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Karimov Javohir Shuhratovich

Farg'ona davlat texnika universiteti
tayanch doktoranti

Masodiqov Qahramonjon Xusanboy o'g'li

Farg'ona davlat texnika universiteti
tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15410850>


Annotatsiya. Shahar jamoat transporti har qanday shaharning infratuzilmasida muhim o'rin tutadi. Transport tizimi aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, shahar hududlari o'rtasida uzviy bog'lanishni ta'minlash va iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashda asosiy vosita hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi hamda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida jamoat transportiga bo'lgan talab keskin oshmoqda. Shu sababli, uning faoliyatini o'rganish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ushbu maqolada Farg'ona shahridagi jamoat transporti tizimi holati tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi hamda tizimni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Jamoat transporti, Harakatni tartibga soluvchi yo'l belgilari, Transport va yo'l-transport sohasidagi mavjud infratuzilma obyektlari, Shahar aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlarni, chorraxalar va ayrim yo'l qismlari, mavjud jamoat transportidagi yo'lovchilar aylanmasi.


Kirish. Farg'ona shahri, O'zbekistonning eng yirik va aholisi zich joylashgan shaharlaridan biri bo'lib, uning transport tizimi shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Jamoat transportlari shahardagi aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, ish joylariga, ta'lim muassasalariga va boshqa muhim manzilgohlarga yetib borishlarini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, jamoat transporti xizmatlarining sifati, qamrov doirasi va samaradorligi aholi hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qism. Ayni paytda shaharda jamoat transportining asosiy qismini avtobuslar, mikroavtobuslar (marshrutkalar) va yo'nalishli taksilar tashkil etadi. Bugungi kunda shaharda 100 dan ortiq avtobus va 500 ga yaqin marshrut taksilari faoliyat olib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Farg'onadagi avtobus va marshrutkalar kuniga o'rtacha 200-250 ming yo'lovchiga xizmat ko'rsatadi. Aholi sonining o'sishi, iqtisodiy faollikning ortishi va shahar hududlarining kengayib borishi hisobiga yo'lovchi oqimi doimiy ravishda ko'paymoqda.



1-rasm. Farg'ona shahri demografiyasi.

Natijada, mavjud transport vositalarining soni yo'lovchilar ehtiyojini to'liq qondira olmayapti va bu holat transport vositalari yetishmovchiligi muammosini keltirib chiqarmoqda. 2025-yilgi rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra¹, Farg'ona shahrida aholining umumiy soni 320 ming kishidan ortiq bo'lib, ularning 60 foizdan ko'prog'i kundalik hayotida jamoat transportidan foydalanadi [1]. Bu esa shahar transport tizimiga bo'lgan talabning yuqoriligidan dalolat beradi.




2-rasm. Farg'ona shahrining jamoat transporti tarmog'i.

Shuningdek, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida jismoniy shaxslarga tegishli avtotransport vositalari soni 325 009 birlikni tashkil etdi[2]. Bu ko'rsatkich Farg'onani respublikada avtotransport vositalari soni bo'yicha yetakchi hududlardan biriga aylantirdi. Aholining ko'p qismi shaxsiy avtomobillardan foydalanishi ham jamoat

¹ <https://farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/16718-farg-ona-shahrining-doimiy-aholi-soni-qanchaga-yetdi-2.html>

transportiga tushayotgan yukni kamaytirishga yordam bermayapti, aksincha shahar yo'llaridagi tirbandliklarni kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, Farg'ona shahrida 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra 10 598 ta korxona va tashkilot ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 6 701 tasi faoliyat yuritmoqda[1]. Ayniqsa, savdo (1 856 ta) va tashish hamda saqlash (249 ta) sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar sonining ko'pligi shaharga kirib keluvchi transport oqimining yuqoriligini ta'minlaydi. Bu esa jamoat transporti bilan bir qatorda, shahar infratuzilmasining yanada zamonaviylashishini talab qiladi.



3-rasm. Shaharga kirib chiquvchi kunlik avtotransport oqimi.

Farg'onaga olib kiruvchi asosiy 7 ta avtomobil yo'llari bo'lib, ular orqali shaharga kunlik o'rtacha 77 500 dan 84 500 tagacha avtomobil kirib chiqadi[3]. Bu transport oqimi yo'l infratuzilmasiga katta bosim tushiradi. Ayniqsa, Qo'qon va Marg'ilon yo'nalishlarida eng yuqori transport yuklamasi kuzatilib, ushbu ikki yo'l orqali bir kunda taxminan 36 000 – 38 000 ta avtomobil harakatlanadi. Bu umumiy transport oqimining 44–49 foizini tashkil etadi. Eng kam yuklama esa Avval avtomobil yo'lida kuzatilib, bu yo'l orqali kuniga o'rtacha 5 000 tagacha avtomobil harakatlanadi (umumiy oqimning 6% atrofida). 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatida yo'lovchi aylanmasi o'tgan yilga nisbatan 2,4 foizga oshgani kuzatildi[4]. Bu ko'rsatkich shaharga kirib kelayotgan transport vositalari sonining ortgani bilan bog'liq bo'lib, aholi harakatining faollashganidan dalolat beradi.

Aholining ehtiyojlarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida yangi Bosh reja doirasida turli tadbirlar tashkil etildi. Bir yil davomida 4 300 dan ortiq ishtirokchi jalb etilib, seminarlar, uchrashuvlar va onlayn so'rovlar orqali fikr va takliflar to'plandi. So'rovnomalarda Farg'ona transport boshqarmasi mutaxassislari, mahalliy aholi, avtotransport sohasidagi manfaatdor tashkilotlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Aholining jamoat transportiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish darajasi 26,7% ni tashkil etgani, mavjud tizimda jiddiy takomillashtirishlarga ehtiyoj borligini ko'rsatdi[5].



4-rasm. Aholi o'rtasida so'rovnoma o'tkazish mexanizmi.

Umuman olganda, Farg'ona shahrining jamoat transport tizimi aholining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa-da, mavjud transport vositalari sig'imi va yo'lovchilar oqimi o'rtasidagi nomutanosiblik, transport vositalarining eskirganligi va tirbandliklar kabi muammolar tizim samaradorligini pasaytirmoqda. Kelgusida bu sohada zamonaviy yondashuvlar, ekologik toza transport vositalari va raqamli boshqaruv tizimlari orqali islohotlar olib borilishi dolzarbdir.

Xulosa va takliflar. Farg'ona shahrida jamoat transporti tizimi mavjud bo'lsa-da, aholining ehtiyojlarini to'liq qondirishda qator muammolar mavjud. Shahar aholisi sonining o'sishi, transport vositalari sig'imining cheklanganligi va transport oqimining notekis taqsimlanishi mavjud muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Ularni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- **Transport vositalari parkini yangilash va kengaytirish** – Eskirgan avtobus va marshrutkalarini ekologik toza, zamonaviy transport vositalariga almashtirish; ularning sonini aholining ehtiyojlariga mos tarzda oshirish.
- **Yo'nalishlarni optimallashtirish** – Aholi zich joylashgan hududlar va muhim ijtimoiy ob'ektlar o'rtasida yangi marshrutlar joriy etish.
- **Raqamli texnologiyalarni joriy etish** – Elektron chiptalar, mobil ilovalar, real vaqtda kuzatuv tizimlari orqali xizmat sifatini oshirish.
- **Transport oqimini muvofiqlashtirish** – Qo'qon va Marg'ilon yo'nalishlaridagi yuklamani kamaytirish uchun muqobil yo'llar va transport boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish.
- **Jamoatchilik bilan muloqotni kuchaytirish** – Aholi fikrini o'rganish va ularga asoslangan holda qarorlar qabul qilish.
- **Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish** – Davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalar jalb qilish va xizmatlarni diversifikatsiya qilish.
- **Transport infratuzilmasini yaxshilash** – Bekatlar, belgilashlar, yo'l va piyodalar infratuzilmasini yangilash.

Yuqoridagi choralarni amalga oshirish Farg'ona shahrining jamoat transport tizimini samarali, qulay va barqaror shaklga keltirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat shahar aholisi farovonligini oshiradi, balki ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2025). *Farg'ona viloyati bo'yicha demografik va transport statistik ma'lumotlar*. <https://stat.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2024). *Jamoat transportini rivojlantirish strategiyasi: Farg'ona viloyati misolida*. Toshkent: Transport vazirligi nashriyoti.
3. Farg'ona viloyati hokimligi. (2024). *Farg'ona shahrining bosh rejasi loyihasi va jamoatchilik ishtiroki yakunlari*. Farg'ona: Viloyat hokimligi rasmiy hisobotlari.
4. "Uzavtotrans" agentligi. (2024). *Avtomobil transporti oqimlari va yuklamalari tahlili bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent: Uzavtotrans nashriyoti.
5. Farg'ona viloyati transport boshqarmasi. (2024). *Farg'ona shahrida avtobus va marshrutli taksi yo'nalishlari bo'yicha statistika*. Farg'ona: Ichki hujjatlar to'plami.
6. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2023). *Shahar infratuzilmasini raqamlashtirish loyihalari: holat va istiqbollar*. Toshkent: Innovatsiyalar matbuot markazi.
7. Jahon banki. (2023). *Urban Mobility and Public Transport Development in Central Asia*. Washington, D.C.: World Bank Publications.

INNOVATIVE
ACADEMY